



Navoiy viloyat statistika boshqarmasi Investisiya va qurilish statistikasi bo`limi

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida qurilish ishlari hajmi

RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari – 1526,8 mlrd.so`m
- Yirik pudrat tashkilotlarining ulushi – 31,9 foiz
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – 36,8 foiz
- Qurilishda norasmiy sektor ulishi – 31,3 foiz

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylari davomida Viloyatda 1526,8 mlrd.so`mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o`shish sur`ati o`ngan yilning mos davriga nisbatan 121,7 foizni tashkil etdi va 2017 yil mos davriga nisbatan 16,9 foizli punkitga oshdi.


Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 485,9 mlrd.so`mni yoki 208,9 foizni tashkil qilib, o`ngan yilning mos davriga nisbatan 101,7 foizli punktga oshdi.

Mos ravishda, kichik korxonalar va mikrofirmalari 562,3 mlrd.so`m yoki 101,5 % ni hamda norasmiy sektor 478,6 mlrd.so`m yo`ki 99,8% ni tashkil etdi.


Ayrim tuman(shahar)larda o`ngan yilning mos davriga nisbatan pudrat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmi oshganligi kuzatildi.

Shu jumladan, Navoiy shahrida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 15,9 mlrd.so`mni, o`shish sur`ati 186,6 foizni tashkil etdi.

Xususan, yirik qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining yuqori darajada o`shish sur`ati Zarafshon shahrida–378,0 mlrd.so`mni yoki 308,1%ni mos ravishda, Karmanada tumanida–19,7 mlrd.so`m yoki 66,4%ni, Qiziltepa tumanida–18,4 mlrd.so`m yoki 86,5%ni tashkil etdi



Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining 2018 yil yanvar-oktyabr oylari uchun o'sish sur'ati
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan% da)



2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi quyidagicha ifodalanadi:

	<i>Jami</i>		<i>Shu jumladan</i>	
			<i>Hududiy qurilish-pudrat, tashkilotlari</i>	
	<i>Mrd. sum</i>	<i>O'sish sur'ati, foizda</i>	<i>Mrd. sum</i>	<i>O'sish sur'ati, foizda</i>
Navoiy viloyati	1526,8	121,7	437,1	328,5
Navoiy sh.	281,4	107,0	15,9	186,6
Zarafshon sh.	417,8	261,4	378,0	308,1
tumanlar				
Karmana	197,3	114,3	19,7	66,4
Konimex	24,5	145,6	-	-
Qiziltepa	224,6	97,5	18,4	86,5
Navbahor	97,7	81,4	-	-
Nurota	86,6	87,5	-	-
Tomdi	2,4	75,5	-	-
Uchquduq	21,6	125,0	-	-
Xatirchi	172,9	94,2	5,1	-

Hududlar kesimida qurilish ishlarining eng ko'p qismi viloyatning Zarafshon shahrida bajarilgan bo'lib viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 27,4% ni tashkil etadi, Navoiy shahrida bajarilgan qurilish ishlari esa 18,4% ni, Qiziltepa tumanida 14,7% ni, Xatirchi tumanida 11,3 %ni va Karmana tumanlarida 12,9 %ni tashkil etdi.

Viloyat bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Tomdi tumanida bu ko'rsatkich eng past 0,2%ni tashkil etdi.

Shuningdek, Uchquduq va Konimex tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 1,4% va 1,6% ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Katta hajmdagi amalga oshirilayotgan qurilish ishlariga – NKMK “ZARAFSHON QURULISH BOSHQARMASI” tomonidan amalga oshirilib kelinayotgan "Amudaryo-Zarafshon" suv quvurining uchinchi liniyasini nasos stantsiyalarini rekonstruksiya qilish, "Ko'kpatas" va "Daugiztau" konlarini qazib olish texnologiyasini takomillashtirish “Aumindzo-Amantay” konlarida oltin-ma`danli birikmalarni qazib olish va qayta ishlash hisobidan qurilish kabi yirik loyihalarni misol keltirib o'tish mumkin.

2018 yil yanvar-oktyabr oylari qurilish ishlari hajmining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

1323720,5
mln.so'm

- Turar joy va noturar joy bino va inshootlarni barpo qilish bo'yicha qurilish ishlari

110467,7
mln.so'm

- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

92571,3
mln.so'm


- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Mulkchilik shakli

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1092,6 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 71,6 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,2 foizli punktiga kamaydi.

Joriy davrda Zarafshon shahrilda jami qurilish ishlari hajmida nodavlat sektorining ulushi 9,5 foizni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 13,6 foizga kamaydi. Karmana tumani bo'yicha jami qurilish ishlari hajmida nodavlat sektorining ulushi 90,0 foizni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 8,8 foizga oshdi, mos ravishda bu ko'rsatkich Xatirchi va Qiziltepa tumanida 100,0 foizni tashkil qildi.

Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 434,2 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 28,4 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,2 foizli punktiga oshdi. Zarafshon shahrilda jami qurilish ishlari hajmida davlat sektorining ulushi 90,5 foizni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 13,6 foizga oshdi.



O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yilning 22 noyabirdagi «2017-2021 yillarda shaharlarda arzon ko`p qavatli uylarni qurish va rekonstruksiya qilish Dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to`risida»gi PQ-2660 sonli qaroriga asosan viloyatda 2019 yil uchun mazkur namunali uylar bo`yicha qurilish ishlari boshlab yuborilgan.